

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 14-iyun, № 118 (8741) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# INSON HUQUQLARI BO‘YICHA TO‘RTINCHI AN’ANAVIY SAMARQAND FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli Forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, “Ekologik tahdidlar: o‘zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash” mavzusidagi inson huquqlari bo‘yicha to‘rtinchi an’anaviy Samarqand forumining barcha ishtirokchilari va mehmonlarini samimiy qutlayman.

Yurtimizda ilk bor 2018-yilda o‘tkazilgan Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumi jahon amaliyotiga o‘ziga xos “Samarqand ruhi”ni olib kirdi, desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu tariqa inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag‘ishlangan Samarqand forumlarini o‘tkazish yaxshi an’ana tusini oldi.

Anjumanda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi, shuningdek, taniqli xorijiy davlat va jamoat arboblari, inson huquqlari sohasidagi yetakchi ekspertlar ishtirok etayotgani ayniqsa ahamiyatlidir.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Yaxshi ma’lumki, global iqlim o‘zgarishi oqibatida sayyoramizda keskin ekologik vaziyat yuzaga keldi. Ichimlik suvi taqchilligi, atrof-muhit ifloslanishi, tuproq yemirilishi, kuchli chang va qum bo‘ronlari, bioxilmaxillikning yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligining pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Barcha qit’alarda va mamlakatlarda bu jarayonlarning salbiy ta’siri yanada kuchayib bormoqda. Ayniqsa, havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki barobar ko‘p bo‘lgan va Orol fojiasini boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida buning oqibatlari yaqqol sezilmoqda.

Ekologik inqiroz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi eng asosiy to‘siq va tahdidga aylandi, global miqyosda qashshoqlik bilan bog‘liq muammolar ko‘paymoqda, insonning sog‘liq, toza suv, oziq-ovqat va uy-joyga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash xavf ostida qolmoqda. Bundan, avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, ayollar va bolalar jiddiy aziyat chekmoqda.

Albatta, iqlim o‘zgarishi oqibatida inson huquqlariga yetkaziladigan zararni keskin kamaytirish uchun jahon mamlakatlari birgalikda samarali choralar ko‘rishi kerak. Kelajak avlodlar taqdiri uchun barchamiz ulkan mas’uliyatni o‘z zimmamizga oladigan vaqt keldi.

Parij bitimida ta’kidlanganidek, iqlim o‘zgarishiga qarshi choralar ko‘rilayotganida, davlatlar inson huquqlarini hurmat qilishi, rag‘batlantirishi va himoya qilishi, asosiy diqqat-e’tiborini mazkur sohadagi majburiyatlarini bajarishga qaratishlari lozim.

Hurmatli mehmonlar!

Yangi O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi muammolari bilan kurashish barqaror rivojlanishni ta’minlashning eng muhim omiliga aylandi. Biz imkon qadar bunday jarayonlarning oldini olish va ularning salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rmoqdamiz.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi alohida bobda mustahkamlangan. Davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha vazifalarni amalga oshirish majburiyatlari belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga va uglerod neytralligiga o‘tish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 2030-yilga borib mamlakatimiz energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 40 foizga yetkazishni rejalashtirganmiz. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida O‘zbekistonda 1 milliard tup ko‘chat ekilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o‘rmonzorlar barpo etdik.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, bizning sa’y-harakatlarimizni jahon hamjamiyati keng qo‘llab-quvvatlamoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish”, “Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash” kabi muhim rezolyutsiyalar bir ovozdan qabul qilindi.

Hech shubhasiz, insoniyat to‘qnash kelayotgan iqlim bilan bog‘liq keskin muammolar oqibatlarini yumshatish inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Shu bois Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasini ishlab chiqish va ilgari surish bo‘yicha tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlaysizlar, deb ishonaman.

Siz, azizlar Forum davomida global miqyosda ekologik vaziyat barqarorligini saqlash, inson huquq va manfaatlariga xizmat qiladigan yangi amaliy takliflarni ishlab chiqasizlar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, Forum ishiga ulkan muvaffaqiyat tilab qolaman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# KOREYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONGA KELDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol rafiqasi bilan birga 13-iyun kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.**

Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O‘zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

Shundan so‘ng Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida Janubiy Koreya delegatsiyasi vakillariga bu yerda aks ettirilgan siymolar va tarixiy voqealar mazmuni haqida batafsil ma’lumot berildi.

Uch ming yildan ziyod davr – ona Vatanimiz hududidagi milliy davlatchilik tarixi ildizlari shu qadar teran. Monumentga e’tibor qaratgan kishi mana shu zalvarli o‘tmishning badiiy ifodasiga guvoh bo‘ladi.

Oliy martabali mehmonlar, rasmiy xorijiy delegatsiyalarning mamlakatimizga tashrifi doirasida bu yerdagi monumentga gul qo‘yish an’anaga aylangan.

Delegatsiya a’zolari majmuada aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jadid bobolarimizning siymolariga alohida e’tibor qaratdi. Tinchlik, erkinlik, ezgulik timsoli bo‘lgan Humo qushi tasviri majmuaning bamisoli gultojiday ko‘rinishi e’tirof etildi.

So‘ng Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol Toshkent shahridagi “U-ENTER” innovatsion tadbirkorlik markazida bo‘ldi.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi va Koreya axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish agentligining qo‘llab-quvvatlovi bilan tashkil etilgan “U-ENTER” innovatsion tadbirkorlik markazi Janubiy Koreyaning ilg‘or tajribasi asosida o‘zbekistonlik yosh tadbirkorlarga o‘z biznes loyihalarini amalga oshirishlari uchun har tomonlama ko‘mak berishga mo‘ljallangan.

Mazkur markaz startaplarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish va imkoniyatlarni kuchaytirish orqali O‘zbekiston startap ekotizimini jonlantirish, tajribalar bilan o‘rtoqlashish, Koreya startaplarining Markaziy Osiyoga kirishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyo murakkab global inqirozga yuz tutayotgan davrda o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va bu yo‘lda samarali loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mamlakatlar taraqqiyoti uchun muhim sanaladi.

Prezident Yun Sok Yol markazda O‘zbekiston yoshlari bilan samimiy suhbatlashdi. Markazning faxriy mehmonlar kitobiga o‘zining samimiy dil so‘zlarini yozib qoldirdi.

Koreya Respublikasi Prezidenti mamlakatimizda istiqomat qilayotgan bir guruh koreys diasporasi vakillari bilan ham uchrashdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 14-iyun kuni bo‘lib o‘tadi.

Oliy darajadagi muzokaralarda O‘zbekiston – Koreya do‘stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi.

Sammit yakunlari bo‘yicha bir qator hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolanishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, ikki mamlakat Prezidentlarining qo‘shma biznes-forumda ishtirok etishi kutilmoqda.

Prezident Yun Sok Yol mamlakatimizning boy madaniy-tarixiy merosi bilan tanishish maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyuradi.

**O‘zA.**

# INSON HUQUQLARI BO‘YICHA SAMARQAND FORUMI

## dunyo miqyosida tajriba almashishga zamin yaratdi

*Inson huquqlari bo‘yicha IV Samarqand forumi bo‘lib o‘tmoqda. Bu galgi an’anaviy xalqaro anjuman “Ekologik muammolar: o‘zgaruvchan dunyoda inson huquqlari kelajagi, barqaror yechimlar topish” mavzuiga bag‘ishlandi.*

*Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan har ikki yilda bir marta o‘tkazib kelinayotgan mazkur xalqaro anjuman BMT va uning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari, YXHT, Yevropa Ittifoqi, IHT, ShHT, MDH, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash, Fridrix Ebert va Konrad Adenauer nomidagi jamg‘armalarning mamlakatimizdagi vakolatxonalari hamda Turkiy mamlakatlar Parlament assambleyasining yuqori darajali vakillari bilan hamkorlikda tashkil etildi.*






O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Inson huquqlari bo‘yicha IV Samarqand forumi ishtirokchilariga murojaat yo‘lladi. Murojaatni Prezidentning matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Forumning ochilish marosimida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov iqlim va inson huquqlari muammolari muhokama qilinadigan ushbu xalqaro anjuman O‘zbekiston Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasidagi (SOP28) nutqida ilgari surilganini alohida ta’kidladi.

Shundan so‘ng BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Folker Tyurk hamda YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi direktori Matteo Mekachchining videomurojaatlari namoyish etildi.

Spikerlar Samarqand forumi ishiga muvaffaqiyat tilab, hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilayotganiga e’tibor qaratdilar.

➔ 2

# Elchi Vitaliy FEN:

# TOSHKENTDA O‘TADIGAN OLIY DARAJADAGI UCHRASHUVLAR O‘ZBEKISTON VA KOREYA RESPUBLIKASI XALQLARI FAROVONLIGI YO‘LIDA ALOQALARNI KENGAYTIRISHGA KUCHLI TURTKI BERADI

*O‘zbekistonning Koreya Respublikasidagi elchisi Vitaliy Fen Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning mamlakatimizga 13-iyun kuni boshlangan davlat tashrifi arafasida “Dunyo” axborot agentligiga intervyu berdi va mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarning bugungi holati hamda istiqbollari haqidagi fikrlarini bayon etdi.*



## Intervyu

– So‘nggi yillarda O‘zbekiston – Koreya Respublikasi aloqalari ikki davlat turli vazirlik va idoralari o‘rtasidagi doimiy hamda sermahsul muloqot natijasida faollashib bormoqda.

O‘zaro diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon davlat rahbarlari darajasida 18-marta uchrashuv va muzokaralar o‘tkazildi. E’tiborlisi, 2019-yil aprel oyida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar mutlaqo yangi – alohida strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning ilk uchrashuvi 2023-yil sentabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasi sessiyasi doirasida o‘tkazilgan edi.

Muloqot chog‘ida O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Azaldan yaqin do‘stlik rishtalariga, xalqlarimizning mentaliteti, an’ana va qadriyatlari o‘xshashligiga asoslangan ikki tomonlama aloqalar izchil rivojlanib borayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

➔ 2

# IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALASI KO‘RIB CHIQILDI

*Jenevada Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktori yordamchisi Mia Seppo bilan uchrashuv o‘tkazdi.*

## Muloqot

Unda xalqaro mehnat standartlarini joriy etish orqali ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Mia Seppo “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, norasmiy bandlikni bartaraf etish, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish kabi muhim chora-tadbirlar aks etganligini olqishladi.

Shuningdek, muloqotda O‘zbekiston BMT Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan “Ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori” tashabbusini joriy etayotgan yetakchi davlatlardan biri ekanligi e’tiborga olinib, bu borada tegishli davlat tashkilotlari bilan aniq loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

## Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida

# O‘zbekiston – JST:

# USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar hamda Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitalari tomonidan “O‘zbekiston va Jahon savdo tashkiloti” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.*

Qonunchilik palatasi deputatlari, Parlament tadqiqotlari instituti, vazirlik va idoralar vakillari, ekspertlar hamda jurnalistlar ishtirok etgan tadbirda ta’kidlanganidek, milliy iqtisodiyotning mavjud salohiyatini ro‘yobga chiqarish, uning global ishlab chiqarish va qo‘shilgan qiymat zanjiriga integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, erkin bozor tamoyillarini amalda tatbiq etishni kengaytirish, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a’zoligiga erishishni jadallashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

➔ 3

# INSON HUQUQLARI BO'YICHA SAMARQAND FORUMI

## dunyo miqyosida tajriba almashishga zamin yaratdi

← 1

Sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya'ni iqlim o'zgarishi, bioxilmaxillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaymoqda. Bu xavf-xatarlar, hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylangan iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda. Shunday murakkab sharoitda Orol dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanmoqda.

Global muammo bo'lgan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida O'zbekiston o'z imkoniyatlari darajasida harakat qilayotgan bo'lishiga qaramay, buni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim. Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidenti 2023-yil 20-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.

Ushbu tashabbus global iqlim o'zgarishlarining Markaziy Osiyo bilan bog'liq tahdidlarning oldini olish uchun mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda barcha hamkorlarning manfaatlariga birdek mos keladi. Bu taklifning negizida mavjud ekologik muammolarga faqat mintaqaviy darajada yondashish emas, balki ayni tahdidlarning o'ziga xos jihatlariga xalqaro hamjamiyat e'tiborini qaratish maqsadi ham mujassamdir.

Anjuman ishtirokchilari ushbu sohada zarur bilimlar olish bilan bir qatorda, xalqaro hamjamiyat doirasida o'zaro tajriba almashish va eng maqbul amaliyotlar bilan tanishish imkoniga ham ega bo'ldi.

Forumda asosiy e'tibor iqlim o'zgarishlarining inson huquqlariga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini yumshatishga oid aniq tavsiya va yechimlar tayyorlashga qaratildi.

Bu boradagi munozaralar Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va o'zgarayotgan iqlim sharoitida har bir insonning huquqlarini himoyalash uchun ko'maklashadigan samarador strategiya va yondashuvlarni ishlab chiqishda turli soha mutaxassislariga qulay maydon bo'lib xizmat qilmoqda.

Forum doirasida oflayn va onlayn tarzda uchta yalpi majlis o'tkazildi. Birinchi yalpi majlisda so'zga chiqqan ekspertlarning fikricha, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar o'z dasturlarini ekologiya muammolariga yechim topishga oid rejalar bilan uyg'unlashtirishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday amaliy yondashuv, o'z navbatida, ekologiya adolatsizligini bartaraf etish, shuningdek, insonlarning qadr-qimmati hamda huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan maqbul siyosatni targ'ib etishda ushbu tuzilmalar hal qiluvchi mavqega egaligini amalda namoyon etishga xizmat qiladi.



Ikkinchi yalpi majlisda global iqlim o'zgarishining ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarga ta'siri imkon qadar chuqurroq tahlillar negizida ko'rib chiqildi. Bunda aholi zaif qatlamlarining huquqlarini ta'minlash bo'yicha aniq strategiyalarni taqdim etishda davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratildi.

Uchinchi yalpi majlisda o'zgaruvchan iqlim sharoitida inson huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan mavjud xalqaro va mintaqaviy hujjatlar batafsil ko'rib chiqildi. Muhokama davomida xalqaro va mintaqaviy hujjatlarda mustahkamlangan, belgilangan standartlarga ham to'xtalib o'tildi.

Anjumanning asosiy maqsadi sayyoramizda barqaror va adolatli yashash sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan hamkorlikdagi yondashuvlarni hamda global strategiyalarni ishlab chiqishdir. Muhokamalarda nafaqat dolzarb muammolarga, balki iqlim o'zgarishiga moslashish yo'nalishidagi istiqbolli yechimlarga, shuningdek, salbiy ijtimoiy va ekologik oqibatlarning oldini olishga ham e'tibor qaratildi.

Yakunda iqlim bo'yicha global tashabbuslar doirasida mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan qator tavsiyalar ishlab chiqildi.

Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi doirasida "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni sovrindorlarini taqdirlash marosimi o'tkazildi.

Forumda 200 nafar mutaxassis qatnashdi. Ishtirokchilar, asosan, milliy va xorijiy ekspertlar, iqlim bo'yicha mutaxassislar, davlat tashkilotlarining iqlim o'zgarishi muammolari bilan shug'ullanadigan mas'ullari, fuqarolik jamiyati instituti, ommaviy axborot vositalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, kompaniyalar, ishbilarmon doiralar va xalqaro tashkilotlar vakillaridan iborat.

Samarqand forumi yakunlari bo'yicha bir qator muhim natijalar qayd etildi. Xususan, forum ishtirokchilari o'rtasida aloqa tarmog'ini o'rnatish va uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish, inson ekologik huquqlari sohasida doimiy axborot almashish va hamkorlik qilish uchun platforma yaratishga kelishib olindi.

Forum tavsiyalarini bajarish uchun uning ishtirokchilari, shu jumladan, hukumatlar, tashkilotlar va fuqarolik jamiyatiga aniq majburiyatlar belgilab berildi. Forumdan keyingi davrda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga samarali javob berish uchun tavsiyalarni amalda qo'llashga qaratilgan strategiya va harakat rejalari tasdiqlandi.

Forumning yakuniy hujjati – "Iqlim o'zgarishlari sharoitida inson huquqlarini global himoya qilish: barqaror kelajak yo'lidagi majburiyatlar va sa'y-harakatlar to'g'risidagi Samarqand deklaratsiyasi" loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur yirik anjuman bugun o'z ishini yakunlaydi.

### So'z – anjuman ishtirokchilariga

**Akmal SAIDOV,**
**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz direktori:**

– Inson huquqlari bo'yicha to'rtinchi an'anaviy Samarqand forumida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining qator sessiyalarida hamda BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida ilgari surgan tashabbuslari asosida global iqlim tahdidlari qarshisida hamjihatlikda harakat qilish hamda uning inson huquqlariga salbiy ta'sirini yumshatish muammolari muhokama etilmoqda.

Shu o'rinda, O'zbekiston Prezidentining tadbir ishtirokchilariga yo'llagan murojaatida ta'kidlaganidek, *"iqlim o'zgarishi odamlarning, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy farovonligiga ham tahdid solmoqda"*.

Davlat rahbarining iqlim o'zgarishining muhim masalalari va uning inson huquqlariga ta'siri bo'yicha ilgari surgan tashabbuslari uchun forum ishtirokchilari nomidan minnatdorlik bildiraman hamda bu tashabbuslarni xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlashga chaqirib qolamiz.

To'rtinchi Samarqand forumining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

*birinchidan*, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari kun tartibini ro'yobga chiqarish bo'yicha sa'y-harakatlar butun jahonda davom etmoqda;

*ikkinchidan*, Samarqand forumida BMT va uning tuzilmalari hamda boshqa xalqaro tashkilotlardan nufuzli vakillar ishtirok etmoqda;

*uchinchidan*, forumda iqlim o'zgarishining inson huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini yumshatish bo'yicha turli tamoyillar va yondashuvlar, shuningdek, bu sohada turli mamlakatlardagi ilg'or tajribalar va amaliyotlar bilan o'zaro almashinish hamda aniq tavsiya va yechimlar ishlab chiqishga e'tibor qaratish hamda global hamkorlik muhimligi e'tirof etiladi.

Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq tabiiy zaxiralar qisqarayotgan, ekologiya va tabiat bilan bog'liq muammolar insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan hozirgi davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ekologik tahdidlar sharoitida inson huquqlarining to'rtinchi avlodi tarkibida ekologik huquqlar vujudga kelganligi to'g'risida gapirishga asos bo'lmoqda.

Ekologik huquqlarni ta'minlash insonning:

*birinchidan*, qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini;

*ikkinchidan*, atrof-muhitning holati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqini;

*uchinchidan*, ekologik jihatdan muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqini;

*to'rtinchidan*, yetkazilgan ekologik zararning qoplab berilishiga bo'lgan huquqni o'z ichiga oladi.

Ekologik tahdidlarga qarshi kurashish, "yashil" iqtisodiyotga va uglerod neytralligiga o'tish bo'yicha har qanday chora-tadbirlar inson huquq va manfaatlarini buzmaydigan, tengsizlikni keltirib chiqarmaydigan tarzda amalga oshirilishini ta'minlash muhim. Bunda ekologik qarorlar qabul qilinishida inson huquqlarini ta'minlash ustuvor o'rinni egallashi kerak.

**Folker TYURK,**
**BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari:**

– Ehtimol, hech bir joyda Orol dengizidagidek ekologik buzilish kuzatilmagan. O'tgan yili O'zbekistonga tashrifimda bunga o'zim guvoh bo'lganman. Bu misol shuni ko'rsatadiki, uch karra sayyora inqirozi faqatgina atrof-muhit va inson huquqlari uchun falokat emas, bu bizning iqtisodiyotimiz uchun ham halokatdir. Markaziy Osiyoda faqat o'tgan yilning o'zida iqlim bilan bog'liq ofatlar 3 milliard dollar zarar keltirgan.

**Abdushukur HAMZAYEV,**
**O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi:**

– Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi tashabbusi bilan 2021-yilda BMT Bosh Assambleyasining "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi rezolyutsiyasi qabul qilinganini alohida qayd etish lozim. Bosh Assambleya bunday maqomni birinchi bo'lib Orolbo'yi mintaqasiga taqdim qildi.

Natijada 2018 – 2022-yillar davomida Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar o'rmonzorlar yaratildi. Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, Orolbo'yida bioxilmaxillikni saqlash uchun 3,5 million gektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo'riqxonalar va davlat himoya hududlari barpo etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisini markazlashgan tarzda ichimlik suv bilan ta'minlash holati ancha yaxshilandi.

Forumda muhokama etilayotgan masalalar ham og'ir ekologik vaziyatlarda inson huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

**Matteo MEKACHCHI,**
**YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi direktori:**

– Ekstremal ob-havo hodisalari allaqachon yashash, ishlash va o'qish uchun xavfsiz joylarni izlayotgan, ko'pincha o'z uylaridan uzoqda bo'lgan millionlab odamlarning ko'chishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois hayotni o'zgartiruvchi bunday muammolarga javob berish barcha odamlarning huquqlari va ehtiyojlarini hurmat qilish yo'lida juda muhimdir.

Yaqin kelajakda Markaziy Osiyo va butun YXHT hududi inson huquqlari himoyachilarining mehnati hurmat qilinadigan va rag'batlantiriladigan, atrof-muhitga oid xavotirlar eshitiladigan namunaviy mintaqaga aylanishi mumkin.

Global ko'lamdagi hamkorlik, shubhasiz, iqlim bilan bog'liq ofatlarni bartaraf etishga oqilona strategik yechimlar topish va zarur resurslarni samaradorlik bilan safarbar etish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. O'zbekiston Prezidentining ayni yo'nalishdagi tashabbuslari, bir tomondan, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish yo'lidagi xalqaro hamkorlik va muloqotni yanada mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, bunday global muammolar o'zaro jam bo'lib va barcha bosqichdagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirgan holda ish tutish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Muzraf IKROMOV,**
**O'zbekiston adliya vaziri o'rinbosari:**

– Global muammoga aylanib borayotgan avtomobillar harakatlanishi va tirbandliklarning avjiga chiqayotgani ham havoning ifloslanish sabablarini keltirib chiqarmoqda. Avtotransport vositalari atmosfera havosini azot oksidi bilan 45,7 foiz, uglevodorodlar bilan 42 foiz zararlantiradi.

Bir yilda Yer yuzi bo'ylab jami havoga chiqarib tashlanadigan 100 mln. tonnaga yaqin is gazining 75,5 mln. tonnasi yoki 78 foizi avtotransport vositalariga to'g'ri keladi. Shu bois ham bu global xavflar jarayonida inson huquqlarini himoya qilishning barqaror kelajagini belgilab olish, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash – yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifalaridan biri.

**Bakit JUSUPOV**
**YXHTning Iqtisodiy va ekologik faoliyatini muvofiqlashtiruvchisi:**

– Hozirgi kunda YXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi mamlakatdagi iqlim bilan bog'liq muammolar xaritasini tuzmoqda. Shu asosda hukumat aholining, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning ehtiyojlarini qondiradigan axborot siyosatini ishlab chiqishi mumkin.

Bunday loyihalar YXHTning butun mintaqadagi boshqa dala missiyalari bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar jamiyatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi va barqaror turmush sharoitlarini ta'minlash hamda bu sohadagi siyosat asoslarini yaratish orqali inson huquqlarini himoya qilishga yordam beradi.

**Nurlan SEITIMOV,**
**Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) Bosh kotibi o'rinbosari:**

– Iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq muammolarga nisbatan aholining munosabatini shakllantirmasdan turib, ayni shu muammolarni ijobiy hal etish qiyin. Shuning uchun ham ekologiya sohasida ongli shaxsni tarbiyalash sayyoramiz hayotini saqlab qolishning muhim shartlaridan biridir.

Bunda ta'lim va madaniyat dasturlaridan ekologik tarbiya muhim o'rin egallashi lozim. Bu sohada to'plangan tajribalarni hozirgi zamon ilm-faniga xos bilimlar bilan uyg'unlashtirish, shubhasiz, jamiyatda tabiat va bioxilmaxillikni asrab-avaylashga oid qadriyatlar tizimini shakllantirish hamda atrof-muhit bilan hamjihatlikda yashash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

**Abdulaziz YO'LDOSHEV**
**("Xalq so'zi").**

---

Elchi Vitaliy FEN:

# TOSHKENTDA O'TADIGAN OLIY DARAJADAGI UCHRASHUVLAR O'ZBEKISTON VA KOREYA RESPUBLIKASI XALQLARI FAROVONLIGI YO'LIDA ALOQALARNI KENGAYTIRISHGA KUCHLI TURTKI BERADI

← 1

Bugungi kunda O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi siyosiy munosabatlar alohida strategik sheriklik an'analariga mos tarzda o'zaro ishonch, manfaatlarni hurmat qilish, xalqaro maydonda bir-birini keng qo'llab-quvvatlash tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Global va mintaqaviy ahamiyatga molik barcha dolzarb masalalar bo'yicha tomonlarning nuqtayi nazari va yondashuvlari o'xshash va yaqindir.

O'zbekiston rasmiy Seulning Koreya yarim orolida global xavfsizlikni ta'minlash borasidagi tinchliksevar siyosatini qo'llab-quvvatlaydi.

2023-yil sentabr oyida ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida o'zaro hamkorlikning yangi shakli – vazirlar darajasidagi strategik muloqot yo'lga qo'yildi. Bu 32 yillik diplomatik munosabatlarda erishilgan yuksak ishonchning yana bir dalili bo'ldi.

> **Qayd etish kerakki, keyingi yillarda o'zaro savdo va investitsiya ko'rsatkichlari barqaror oshib bormoqda. Janubiy Koreyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari hajmi 7 milliard AQSh dollaridan oshdi. Mamlakatimizda koreyalik hamkorlar bilan birgalikda 726 ta qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda, ulardan 32 tasi joriy yilda tashkil etildi.**

Ushbu korxonalarning faoliyati, asosan, savdo, yengil sanoat, tog'-kon, kimyo, oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, uy-joy kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash, turizm, xizmatlar va boshqa qator sohalarga ixtisoslashtirilgan.

Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi, Koreya Eksimbanki va uning fondlari bilan ko'p yillar davomida samarali hamkorlik qilinayotir, ular bilan birgalikdagi loyihalarning umumiy portfeli 3 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda.

Ikki mamlakat hamkorligida Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan texnologik va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni jadallashtirish, infratuzilma, "yashil" energetika, raqamlashtirish, kadrlar tayyorlash va boshqa yo'nalishlardagi qo'shma loyihalarni ilgari surish amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab olingan.

Bugungi kunda Koreya Respublikasining yetakchi kompaniyalari tomonidan yurtimiz iqtisodiyotining turli sohalarida yuzlab ustuvor investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda xorijiy investorlarga yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida "Samsung Group", "KIA Motors", "LG Corporation", "POSCO Group", "Hyundai Motor Group", "Lotte Group" kabi yirik koreys kompaniyalarining yurtimizga ishonchi ortib bormoqda. Bu, o'z navbatida, Janubiy Koreya xususiy korxonalarining davlat kafolatlarisiz to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritayotgan investitsiyalari miqdorining ortib borishiga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda hamkorlikning yangi yo'nalishi sifatida O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasining nomutanosibligini tenglashtirish hamda eksport-import operatsiyalari nomenklaturasini diversifikatsiya qilish maqsadida ikki davlat o'rtasida Erkin savdo to'g'risida bitim imzolanishi bo'yicha muzokaralar davom etmoqda. Bundan tashqari, Janubiy Koreya O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishiga ham yaqindan ko'maklashib kelmoqda.

Ikki mamlakat munosabatlarida parlamentlararo aloqalar ham muhim o'rin tutadi. O'tgan davr mobaynida parlamentlarimiz tajribasini o'zaro o'rganish, birgalikda xalqaro konferensiyalar o'tkazish, muntazam ravishda delegatsiyalar almashinuvini yo'lga qo'yish borasida amaliy ishlar qilindi.

O'tgan yili ikki mamlakat parlamentlari rahbarlari "Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi hamkorlik forumi" shaklidagi parlament rahbarlarining birinchi yig'ilishi doirasida uchrashgan edi.

Ayni paytda Koreya Respublikasi tajribasi asosida "KOICA" – Xalqaro hamkorlik agentligi ko'magi bilan O'zbekistonda "Elektron parlament" tizimini joriy qilish borasida ishlar davom ettirilmoqda.

Koreya Respublikasi bilan mehnat migratsiyasi sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 2007-yildan buyon davlatlarimiz o'rtasida mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik doirasida Bandlikka ruxsat berish tizimi bo'yicha 40 mingga yaqin O'zbekiston fuqarolari Janubiy Koreyaga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun yuborildi. 2018-yil sentabr oyida Koreya Respublikasining Kvanju shahrida O'zbekiston Bandlik va mehnat munosabatlari (hozirgi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik) vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxonasi tashkil etildi. Hozirgi kunda Janubiy Koreyada Bandlikka ruxsat berish tizimi bo'yicha 15 mingga yaqin o'zbekistonliklar mehnat qilmoqda. O'tgan yili Koreya Respublikasi hukumati tomonidan O'zbekiston uchun 5 ming atrofida ish o'rinlariga kvota ajratilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 12 mingga yetkazildi. Janubiy Koreya tomoni bilan olib borilgan muzokaralar natijasida yil oxirigacha bu raqamni 15 mingga yetkazish rejalashtirilgan.

Davlatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirishda xalqlarimiz mentalitetining yaqinligi hamda O'zbekistondagi yirik koreys diasporasi muhim rol o'ynaydi. Toshkent shahrida ochilgan Koreys madaniyati va san'ati uyi esa xalqlarimizning mustahkam do'stligi va mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar yuqori bosqichga chiqqanining yana bir yorqin tasdig'idir.

Shu bilan birga, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Samarqand davlat chet tillar universitetida koreys tilida darslar olib borilayotir.

Hududlararo yaqin aloqalar o'rnatish doirasida, Toshkent – Seul, Farg'ona – Inchon, Samarqand – Kyondju, Buxoro – Tegu va boshqa bir qator shaharlar o'rtasida o'zaro hamkorlik kundan-kunga rivojlanib bormoqda.

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi hamda Koreya Respublikasi o'rtasidagi samarali hamkorlik alohida strategik sheriklik darajasiga chiqdi. Shu nuqtayi nazardan, Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning yurtimizga davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishi va mamlakatlarimiz xalqlari farovonligi yo'lida aloqalarni yanada chuqurlashtirish hamda kengaytirishga katta turtki berishi, shubhasiz.

**"Dunyo" AA.**
Seul

---

**Janubiy Koreyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etgan investitsiyalari hajmi 7 mlrd. dollardan oshdi.**

OLIY MAJLIS SENATIDA

# Mamlakatimizda YUNISEFning yangi loyihasi



*Oliy Majlis Senatida YUNICEFning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqaviy byurosi xalqaro maslahatchisi Madlen Kuinlan bilan uchrashuv o‘tkazildi.*

*Unda YUNICEFning mamlakatimizdagi vakolatxonasi va O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar muhokama qilinib, yurtimizda sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash borasidagi ishlar to‘g‘risida fikr almashildi.*

Uchrashuvda Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Dilorom Toshmuhamedova qo‘mita huzurida tashkil etilgan o‘smirlar va yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash va profilaktika qilish bo‘yicha idoralararo ishchi guruhning faoliyatiga to‘xtalib, mazkur yo‘nalishda O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamdagi ishlar haqida batafsil ma’lumot berdi.

O‘z navbatida, M. Kuinlan bugungi kunda mamlakat Prezidenti hamda hukumati tomonidan ruhiy salomatlik masalasiga katta e’tibor qaratilib, salmoqli ishlar qilinayotgani va muayyan natijalar qo‘lga kiritilayotganini alohida e’tirof etdi.

Ayni chog‘da, u YUNICEFning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqaviy byurosi tomonidan oltita davlatda, ya’ni Belarus, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmanistonda ruhiy salomatlik stigmasini kamaytirish bo‘yicha loyiha boshlaganligini ma’lum qildi.

Ushbu loyiha ruhiy salomatlik muammolarini hal etishga, shuningdek, tibbiyot xodimlari, o‘qituvchilar, yoshlar va keng jamoatchilik o‘rtasida diskriminatsiyadan xoli tildan foydalanishni targ‘ib qilishga qaratilgani bilan ham e’tiborlidir.

Loyihani O‘zbekistonda amalga oshirish uchun manfaatdor vazirlik va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda soha olimlaridan iborat Maslahat kengashi tuzilgani, uning faoliyatini muvofiqlashtirib borish uchun Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi ko‘magi zarurligi qayd etildi.

Shuningdek, uchrashuvda Oliy Majlis Senatining YUNICEF tashkiloti bilan kelgusidagi hamkorlik istiqbollari ham muhokama qilindi.

# Islohotlarda parlamentning roli ortib borayotgani ta’kidlandi

*Oliy Majlis Senatining Hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish markazi direktori Quvondiq Muqumov hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori Antti Karttunen ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.*

Unda odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, xotin-qizlarning barcha yo‘nalishda huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, gender tenglik masalalaridagi hamkorlik holati va istiqboldagi rejalar keng muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qat’iy siyosiy irodasi tufayli “Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasi asosida davlat va jamiyat siyosiy-huquqiy poydevorini mustahkamlash, bu jarayonda inson huquqlari tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotganligi ta’kidlandi.

Muloqotda YXHTning O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori yurtimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni qo‘llab-quvvatlashini, jamiyatni isloh qilishda mamlakatimiz parlamenti roli ortib borayotganini alohida qayd etdi.

Uchrashuv yakunlari bo‘yicha tomonlar yaqin muloqotni va hamkorlikni mustahkamlashga kelishib oldi.

# YOSHLAR MANFAATLARIDA O‘ZARO HAMKORLIK

*Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahrida BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ning aholishunoslik va rivojlanish bo‘yicha xalqaro konferensiya Harakatlar dasturining (“ICPD – 1994”) 30 yilligiga bag‘ishlangan parlament anjumani bo‘lib o‘tdi. Unda Oliy Majlis Senati a’zolari hamda Qonunchilik palatasi deputatlaridan iborat mamlakatimiz delegatsiyasi ham ishtirok etdi.*

## Anjuman

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, aholishunoslik va rivojlanish bo‘yicha xalqaro konferensiya 1994-yil 5 – 13-sentabr kunlari Qohira shahrida bo‘lib o‘tgandi. Unda qabul qilingan Harakatlar dasturi oilani rejalashtirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, gender tenglikni, xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror rivojlanishni ta’minlash kabi chora-tadbirlarni qamrab olgan.

“Suv resurslari va yoshlar manfaatlarida demografik barqarorlik” mavzuidagi tadbir Tojikiston Respublikasi parlamenti, Aholishunoslik va rivojlanish bo‘yicha Osiyo parlamentlari a’zolari forumi, UNFPAning Dushanbedagi ofisi tomonidan tashkil etildi.

Anjumanda iqlim o‘zgarishi muammolari, suv yetishmovchiligining yoshlar huquq va imkoniyatlariga ta’siri hamda o‘sib kelayotgan avlodni ishli qilish orqali demografik barqarorlikni ta’minlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ustuvor vazifalar, parlamentlarning Harakatlar dasturi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi o‘rni kabi masalalar muhokama qilindi.

Anjumanda Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Odiljon Iminov “Yoshlar salohiyatidan foydalanish: megatrendlarni hal qilish va mintaqada demografik barqarorlikni yaratishda O‘zbekiston tajribasi” mavzuida ma’ruza bilan qatnashdi.

Anjuman yakuni bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# DASTURLAR IJROSI QONIQARLIMI?

*Ayni kunlarda Oliy Majlis Senati a’zolari boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan Farmon va qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi atroflicha o‘rganilmoqda.*

## O‘rganish

Jumladan, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi raisi Erkin Gadoyev hamda Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisi Bahodir Tojiyev boshchiligidagi ishchi guruh Navoiy viloyatida bo‘lib turibdi.

Mazkur guruh tomonidan viloyatda qonunchilik hujjatlari va ular asosida qabul qilingan dasturlar ijrosini ta’minlash bo‘yicha mas’ul davlat organlarining faoliyati, ularning quyi tuzilmalarida amalga oshirilayotgan ishlar, yuzaga kelayotgan muammolarning hal etilishi, hududda xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish holati chuqur tahlil qilindi.

O‘rganish doirasida ishchi guruh a’zolari aholiga dehqon xo‘jaligi uchun ajratilgan yer maydonlari, tomorqalardan samarali foydalanish va yetishtirilgan hosilni o‘z vaqtida yig‘ib olish ishlari bilan tanishdi.

Shundan so‘ng ishchi guruh Navoiy viloyati hokimligida tegishli mutasaddilar bilan yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan muloqot o‘tkazdi.

Ishchi guruhning hududdagi o‘rganishlari davom etmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

O‘zbekiston – JST:

# USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

1

Bugungi kunda JST mamlakatlararo savdo qoidalarini boshqarib turuvchi yagona xalqaro tashkilot sanaladi. Uning asosiy hujjatlarida a’zo davlatlar savdodagi tariflar va boshqa to‘siqlarni sezilarli darajada kamaytirishi va xalqaro savdoda kamsituvchi munosabatni bartaraf etishi lozimligi mustahkamlab qo‘yilgan.

Tadbirda vazirlik va idoralar vakillari hamda ekspertlarning ma’ruzalari tinglandi.

Qayd etilishicha, Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish jarayonida qo‘llaniladigan tartib-taomillar mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama liberallashtirish, rivojlangan davlatlar qabul qilgan standartlar bo‘yicha erkin, raqobatli, shaffof iqtisodiyot qurish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” hisoblanadi.

Shu bilan birga, JSTga kirish O‘zbekistonga kichik va yirik biznes, tadbirkorlik hamda shu orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga ko‘mak beradi. Iqtisodiyot sohalarida yangi “o‘sish nuqtalari”, yangi tarmoqlar paydo bo‘lib, kichik biznes, tadbirkorlik va ayni chog‘da, butun milliy iqtisodiyot taraqqiy topadi.

Ishtirokchilar qayd etganidek, “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmonida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga, erkin bozor tamoyillarini amalda tatbiq etishga xizmat qiladi.

Farmonda qonunchilik bilan taqdim etilgan ko‘plab maxsus (eksklyuziv) huquqlar va imtiyozlarni bekor qilish, shuningdek, tabiiy gaz va elektr energiyasining ulgurji hamda chakana savdo faoliyatini yo‘lga qo‘yish, respublikamiz hududida faoliyat olib boradigan telekommunikatsiya operatorlariga xalqaro internet tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanish huquqini berish, temir yo‘l orqali yuklarni tashishda eksport va import tashish xizmatlari uchun tariflarni birxillashtirish kabi muhim vazifalar belgilangan.



Davra suhbatida Farmonga asosan vazirlik va idoralarga yuklatilgan vazifalar hamda ular ustidan parlament nazoratini olib borish, Qonunchilik palatasi qo‘mitalari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar belgilab olindi. Shuningdek, JSTga a’zo bo‘lish jarayonining tashkiliy-huquqiy asoslari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

# “YASHIL MAKON” DOIRASIDAGI ISHLAR DEPUTATLARNI QANOATLANTIRMADI



*Parlament quyi palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi hamda “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi, Qishloq xo‘jaligi, Suv xo‘jaligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi hamda Transport vazirliklarining “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida joriy yilning bahor mavsumida amalga oshirilgan ishlar holati to‘g‘risida”gi axborotlari eshitildi.*

Qayd etilganidek, Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan butun mamlakat miqyosida daraxtzorlarni ko‘paytirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi hayotga tatbiq etilmoqda. Natijada 2021-yildan buyon mamlakatda 646 mln. 443 ming tup daraxt va buta ko‘chati ekilib, “yashilmakon.eco” platformasiga kiritilgan.

Shu bilan birga, 2024-yil bahor mavsumida mamlakat bo‘yicha 138,1 mln. tup daraxt ko‘chati ekilgan. Bu ishlar viloyat, tuman, mahallalar, ta’lim muassasalari, vazirlik va idoralar kesimida manzilli dasturlar asosida yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan har bir tuman va shaharga hududning tuproq-iqlim sharoitiga mos ko‘chat turlari tizimli yetkazib berilishini tashkil etish maqsadida 747 ta ko‘chat savdo yarmarkasi, 914 ta seminar-trening o‘tkazilgan.

Shuningdek, ijtimoiy soha obyektlari, jumladan, sog‘liqni saqlash muassasalariga Ekologiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 500 ming tup, o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalariga 618 ming tup daraxt ko‘chatlari hamda maktablarga 2,1 mln. dona qalamcha beg‘araz yordam tariqasida yetkazib berilgan. Joriy yilda 377 gektar maydonda niholxona va ko‘chatxonalar tashkil etilgan.

Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan suv obyektlari qirg‘oqbo‘yi mintaqasida 5,1 mln. tup, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan fermer xo‘jaliklari, bog‘zor va tokzorlar hamda yangi tutzorlar barpo etish hisobidan 66,7 mln. tup, Transport vazirligi tomonidan avtomobil, temir yo‘l va metropoliten bo‘ylarida 6,2 mln. tup hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan aholi punktlaridagi uylar atrofida 0,3 mln. tup daraxt va buta ko‘chatlari ekilgan.

Yig‘ilishda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani qayd etilib, bu yil bahor mavsumida qariyb 608 ming tup ko‘chat sug‘orish tizimlari mavjud bo‘lmagan joylarga ekilgani tanqid qilindi.

Joriy mavsumda avtomobil va temir yo‘l bo‘ylariga daraxt ekish rejasi Toshkent viloyatida 29,9 foizga, Toshkent shahrida 32,9 foizga, yirik sanoat korxonalari tomonidan ekilishi lozim bo‘lgan daraxtlar Buxoro viloyatida 40,5 foizga, chiqindi poligonlari atrofida ihota daraxtzorlarni barpo etish 67,7 foizga bajarilgani e’tirozga sabab bo‘ldi.

Bundan tashqari, davlat dasturiga asosan respublikada 444 ta yashil bog‘ barpo qilish vazifasi yuklatilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda “O‘rmonloyiha” DUK tomonidan 132 ta yashil bog‘ning loyihasi ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim etilgan. Qolgan bog‘lar uchun yer tanlash va ajratish bo‘yicha mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari qabul qilinmagan.

Muhokamada deputatlar joylarda parlament va jamoatchilik nazorati tartibida olib borilgan o‘rganishlar davomida iqlim sharoitlariga mos bo‘lmagan daraxt turlari hamda ko‘chatlar doimiy suv manbai bo‘lmagan hududlarda tartibsiz ekilganligini ta’kidlab, ko‘chatlarni ekish, ularni parvarishlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar berdi.

Yig‘ilishda kun tartibidagi masala yuzasidan tegishli qo‘shma qaror qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# QURILISH SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIK KUCHAYTIRILMOQDA

*Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari qurilish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni ko‘zda tutuvchi qonun loyihasini ko‘rib chiqdi.*

*Ma’lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda shaharsozlik sohasini takomillashtirish va shaharsozlik faoliyati obyektlarining seysmik xavfsizligini ta’minlash borasida jadal ishlar olib borilmoqda. Sohada sog‘lom raqobat muhiti yaratilib, ichki manbalar va xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari kengaymoqda. Obyektlarni loyihalashtirish va qurishda innovatsion yechimlar, zamonaviy loyihalar hamda yangi ilmiy-texnikaviy ishlanmalardan foydalanilmoqda. Bular qurilishlarning sifat darajasini oshirish bilan bir qatorda binolar va inshootlarning dizaynini yaxshilab, zamon talablariga mosligini oshirmoqda.*

## Bu – dolzarb

O‘z o‘rnida, shaharsozlik faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar bazasi ham takomillashib boryapti. Bunga 2021-yil 23-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi yaqqol misol bo‘la oladi. Kodeksda, jumladan, shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda:

– fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini hisobga olgan holda mamlakat barcha hududini barqaror rivojlantirishga;

– insonlar yashashi uchun qulay muhit yaratish, atrof-muhitga, tabiiy resurslarga va madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga;

– qurilishlar sifatini oshirish, binolarning xavfsizligi va ishonchliligi, ularning seysmik chidamliligini ta’minlash kabi talablarga rioya qilishga;

– sohada jamoatchilikning ishtirokini ta’minlashga amal qilinishi zarurligiga qaratilgan qoidalar mustahkamlab qo‘yilgan.

Prezidentimizning shu yil 29-apreldagi qarorida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari hamda budjet tizimi hisobidan moliyalashtiriladigan qurilishlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirishning samarali nazorat mexanizmlarini va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, qurilish ishtirokchilarining va nazorat qiluvchi idoralarning mas’uliyatini kuchaytirish choralari belgilandi.

Qarorga muvofiq, qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish vakolati bo‘lgan “Loyiha ofisi” tashkil etildi. Yaqinda “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi va uning “Qurilishda davlat nazorati” elektron platformasi ishga tushirilishi kutilmoqda.

E’tirof etish joizki, yil sayin milliy qurilish normalari, qoidalari, standartlari, texnik reglamentlar takomillashtirilib borilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi besh yil davomida, jumladan, 2019-yilda 71,1 trln., 2020-yilda 88 trln., 2021-yilda 107,4 trln., 2022-yilda 130,7 trln. hamda 2023-yilda 149,9 trln. so‘m hajmdagi qurilish ishlari bajarilgan. Bu ish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar 2016-yilda 2 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ular soni qariyb 48 mingtaga yetdi.

Albatta, bular qurilish sohasidagi davlat nazoratining samarali va sifatli amalga oshirilishini ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-maydagi qarori bilan Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish tartibi belgilab qo‘yildi.

Aytish joizki, Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi (hozirgi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi) tomonidan 2021-yilda 30 454 ta, 2022-yilda 32 531 ta va 2023-yilda 36 245 ta obyektdagi qurilish ishlari ustidan davlat nazorati amalga oshirilgan. Lekin amaldagi qonunchiligimizda sohadagi qonunchilikni buzganlik uchun belgilangan jazo choralari ular o‘ta yengil bo‘lganligi uchun samara bermadi.

Deputatlar tomonidan ko‘rib chiqilgan qonun loyihasida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilgan.

Ushbu o‘zgartirish va qo‘shimchalarga muvofiq, endilikda:

– loyihalashtirish, qurilish-montaj ishlari bajarilayotganda talablarni buzganlik, shuningdek, nazorat qilish inspeksiyalarining ko‘rsatmalarini bajarishdan qasddan bo‘yin tovlaganlik yoki o‘z vaqtida bajarmaganlik (bundan 300 kub metrdan ortiq bo‘lmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar hamda qavatlari ikki qavatdan ko‘p bo‘lmagan (sokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo‘lmagan yakka tartibdagi uy-joy qurilish obyektlari mustasno) uchun fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravari, mansabdor shaxslarga esa yetmish baravari darajasida jarima solinadi;

– xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, ma’muriy jarima miqdorlari oshadi;

– loyiha tashkiloti tomonidan buyurtmachiga qurilish-montaj ishlari davomida loyihaga muvofiq beriladigan majburiy ko‘rsatmalarni to‘liq bajarmaslik, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining qirq baravari, mansabdor shaxslarga esa yetmish baravari darajasida jarima solishga sabab bo‘ladi;

– ushbu huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, jarima miqdori birmuncha oshadi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksiga ham bir qator qo‘shimchalar kiritilmoqda. Unga ko‘ra, qurilishi tugallangan binolar va inshootlardan foydalanishga doir ruxsatnoma berish hamda ularni foydalanishga qabul qilish qoidalarini buzish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanadi.

Obyektlarni Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyalarining ruxsatnomasiz qurish, shunday harakatlar ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ko‘p kvartirali uylardagi tayanch konstruksiyalarni qonunchilikni hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni buzgan holda o‘zgartirish va (yoki) rekonstruksiya qilish, shunday harakatlar ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilishga sabab bo‘ladi.

Shu o‘rinda, tabiiyki, qurilish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni yanada kuchaytirish zarurmi, degan savol tug‘iladi. Albatta, zarur. Eng avvalo, ayrim fuqarolar va qurilish sohasiga daxldor mas’ul shaxslarning bu yo‘nalishdagi qonunchilikni bilmasligi yoki bilaturib qonun talablarini bajarmasligi yoxud bajarishdan qasddan bo‘yin tovlashi javobgarlikning kuchaytirilishiga turtki bo‘lmoqda.

Deputatlar ham joylarda qurilish tashkilotlari mas’ullari bilan o‘tkazgan uchrashuvlarda, ularning aksariyati qurilish sohasidagi qonunchilik talablarini yetarlicha tushunmasligi yoki umuman bexabar ekanligiga guvoh bo‘lmoqda.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda qonunchiligimizda qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy va jinoiy jazolar anchayin yengil bo‘lib, tabiiyki, yengil jazoni huquqbuzarliklarning takror sodir etilishiga chek qo‘yadi, deb bo‘lmaydi. O‘ylaymizki, ushbu qonun tez-tez duch kelinayotgan noqonuniy qurilishlarning oldini olish borasidagi huquqbuzarliklarni kamaytirishda, eng muhimi, qurilishlarning sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar aholi xavfsizligini, qurilish obyektlarining sifati va bardoshliligini oshirishga, atrof-muhit muhofazasi, asosiysi, qonunlarning ustuvorligini hamda mas’ullar tomonidan so‘zsiz ijro etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur qonun Oliy Majlis Senatiga ma’qullash uchun yuborildi.

**Qahramon ERGASHEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining**
**Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasi a’zosi.**

**O‘zbekistonning 7 ta oliy ta’lim muassasasi “Impact Rankings – 2024” xalqaro reytingida dunyo miqyosida «top – 1000»talikdan joy oldi.**

# DAVRAMIZ FAYZI, XONADONLARIMIZ FARISHTASI

## Keksalar davlatimiz va jamiyatimiz ardog'ida

*Vaqt o'tishi bilan inson keksayadi, o'z-o'zidan uning mehnat qobiliyati pasayadi. Bu – tabiat qonuni. Ana shu qonuniy jarayonlar oqibatida keksalarning ijtimoiy ehtiyojida o'zgarishlar ro'y beradi. Jamiyatda keksalar ehtiyojiga muvofiq ijtimoiy himoya tizimini yaratish ularning turmush tarzini yaxshilashga, ijtimoiy ahvolini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.*

### Tahlil va taqqos

#### Inson – oliy qadriyat

Keksalarning ijtimoiy ahvoli bevosita ular salomatligi bilan bog'liq. Barcha yoshdagi kam ta'minlangan fuqarolarning barvaqt nogiron bo'lishi va bevaqt vafot etishi ba'zan moddiy va ma'naviy nochorlik oqibatida sodir bo'ladi. Kam ta'minlangan keksa kishilar uchun ularning ayanchli taqdiri tibbiy xizmatdan foydalana olmaslik, o'z salomatligini muhofaza qilish, tez, shoshilinch hamda boshqa tibbiy yordam va xizmatdan foydalanish uchun moliyaviy imkoniyatlari yo'qligi sababli yanada murakkablashadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra ayni paytda dunyoda umrguzaronlik qilayotgan keksalarning 68 foizi qarilik pensiyasi oladi. Bu ko'plab davlatlarda hali ham jamg'arib boriladigan yoki sug'urtali pensiya ta'minoti yetarlicha rivojlanmaganini ko'rsatadi. Ijtimoiy ta'minot takomillashmagani bois insoniyatning 56 foizi sog'liqni saqlash huquqidan foydalanish imkoniga ega emas.

Prezidentimizning o'tgan yil 27-dekabrdagi "O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori "Odamlar ertaga emas, bugun baxtli yashashni istaydi", degan tamoyil asosida inson omili oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan O'zbekistonda ushbu aholi qatlamiga alohida g'amxo'rlik ko'rsatish va e'tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratmoqda.

#### Ijtimoiy himoya tizimida xalqaro tajriba

Oila va jamiyatda, yoshlarni xalqimizning ko'p asrlik qadriyat va an'analari ruhida tarbiyalashda keksalarning o'rnini hech bir vosita bosa olmaydi. Shu bois yurtimizda xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo'lgan mo'tabar nuroniylarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Ularga ijtimoiy yordam, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatish takomillashtirilyapti.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar samarasi o'laroq xalq farovonligi, aholi bandligi, fuqarolarning munosib yashash sharoitiga ega bo'lishini ta'minlash asosiy vazifalardan biriga aylandi. Bu borada dunyo tan olgan olimlarning aholini ijtimoiy himoya qilish konsepsiyalarini muvaffaqiyatli qo'llab kelayotgan ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganildi. Ularning eng maqbul tomonlari olinib mamlakatimizda amaliyotga joriy etilmoqda, jahonda muqobili topilmaydigan mahallabay ishlash tizimi bilan uyg'unlashtirilyapti. Hozirgi kunda aholining yashash sharoiti va mavjud muammolari shu tizimning o'zida o'rganilib, ularning yechimi topilayotir.

Shvetsiyalik olim Esping-Anderson 1991-yilda ijtimoiy himoya tizimini liberal va konservativ guruhga bo'lgan. Ijtimoiy ta'minotning liberal turida asosiy mezon muhtojlikni tekshirish, davlatning ijtimoiy yordamini erkin bozordan ajratish, manzilli ko'mak ko'rsatish singari o'ziga xos omillar bilan ajralib turadi. Asosiy maqsad – kambag'allikni yo'qotishga qaratilgan bo'lib, ilk bor Buyuk Britaniya, Yaponiya davlatlarida muvaffaqiyat bilan qo'llanila boshlangan.



Ijtimoiy ta'minotning konservativ turida belgilangan vazifalarning bajarilishini tekshirish, ijtimoiy sug'urtalashning klassik tizimini qo'llash, umrbo'yi mehnat qilgan fuqarolarga keksayganida munosib moddiy yordam ko'rsatib borish kabi qator gumanistik mezonlar mavjud. Bundan maqsad – har bir fuqaroning ishga layoqatli bo'lgan davrda erishgan turmush darajasi, moddiy farovonligini saqlash, ularning qashshoqlik girdobiga tushib qolishining oldini olish hisoblanadi. Bu usul hozirgacha Germaniya va Farbiy Yevropa mamlakatlarida qo'llanib kelinadi.

Ijtimoiy himoya tizimlari turli mamlakatlar amaliyotida turlicha joriy etilgan. Masalan, Skandinaviyada yashovchi fuqarolar ijtimoiy ta'minot huquqiga, barcha ishlovchilar ish haqiga qarab imtiyozlar olish huquqiga ega. Davlatning asosiy vazifasi to'liq bandlikni ta'minlashdan iborat bo'lib, ana shu omil keksalarning baxtli va farovon hayot kechirishini ta'minlab kelmoqda.

Bismark tizimida ham davlatning asosiy vazifasi aholini ish bilan ta'minlash, daromadlarini oshirish va himoyalash hisoblanadi. Kasalligi yoki nogironligi bo'lganlar alohida ijtimoiy muhofazaga olinadi. Ammo ishga layoqatli bo'laturib, mehnatdan bo'yin tovlagan fuqarolar bundan mustasno.

Beverij tizimida har bir fuqaro kasal bo'lganida, keksayganida, homiladorlik paytida, vafot etganida ularga, albatta, ijtimoiy nafaqa yoki pul ko'rinishidagi moddiy yordam beriladi. Davlatning asosiy vazifasi fuqarolarning minimal daromadlarini himoyalashdan iborat bo'lib, bunda kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan yolg'iz keksalarni moddiy yordam bilan qamrab olish mas'uliyatini davlat o'z zimmasiga oladi.

Xitoy tajribasida aholini kambag'allikdan chiqarish uchun barcha tashkilotlar mas'ul. Ana shu omilning o'zi boqimandalikka yo'l qo'ymaydi. Mamlakatda fuqarolarga moddiy yordam ko'rsatishdan ko'ra ularning bandligini ta'minlash, bo'sh ish o'rinlari yaratish muhim o'rin tutadi.

#### Yurtimizdagi o'ziga xos yondashuv

Hozirgi kunda Yer yuzida 60 yoshdan oshgan keksa avlod soni yildan-yilga ko'paymoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra 2025-yilga borib bu raqam 1 milliarddan oshib ketishi prognoz qilinyapti. Bu – 1950-yildagiga nisbatan 5-marta ko'p, demakdir. Dunyo aholisining bunday tarkibiy tuzilishi xorijiy va MDH mamlakatlarida keksalarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda 2030-yillarga borib pensiya yoshidagilarning umumiy aholi sonidagi ulushining ortishi xarajatlarni manzilli yo'naltirishni takomillashtirish va daromadlarni tabaqalashtirishni taqozo etadi. Bunda ijtimoiy himoyaning muhim bo'lagi hisoblanmish xususiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining takomillashtirilishi barobarida pensiya tizimi mablag'laridan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bu chora-tadbirlar xarajatlar maqsadliligini ta'minlash bilan birga, aholini, ayniqsa, keksa avlodni ijtimoiy himoya qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqish kafolatini beradi.

Kambag'al, ishsiz fuqarolarni o'z qiziqishiga qarab monomarkazlarda kasb-hunar yoki tadbirkorlikka o'qitish, shu asosda ishga joylashtirish ishlari olib borilmoqda. Birgina aholini kasb-hunarga o'qitish uchun har yili davlat tomonidan bir necha yuz milliardlab mablag' ajratilyapti. Aholining doimiy daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida barcha yo'nalishda belgilangan mexanizmlar o'z samarasini bermoqda.

"Mahalla yettiligi" tomonidan kambag'al oilalar ro'yxati shakllantirilib, ular davlatning doimiy e'tiboriga olinyapti. Oila a'zolarining har biriga o'qitish va ish bilan ta'minlashdan tortib barcha zarur yo'nalishda alohida manzilli yordam ko'rsatiladi. Ayni shu yo'nalishda mahallalardagi hokim yordamchilari tomonidan "Online-mahalla" platformasida aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual dasturlar tuzilib, bu borada ham qo'lga kiritilgan tajribalar umumlashtirilmoqda.

#### Sohada raqamlashtirish qanday natijalar bermoqda?

Endilikda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan individual tartibdagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish rejasi tuzilib, shu asosda "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning reestri yuritiladi. Markaz, shuningdek, o'zgalarning parvarishiga muhtojlik darajasini baholaydi.

Ijtimoiy himoya tizimida xususiy sektor ishtiroki kengaytirilib, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib tabaqalashtirilgan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi joriy etilmoqda.

Joriy yilning may oyidan esa reestrga kiritilgan yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga har oylik uy-joy kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha kompensatsiya berish yo'lga qo'yildi. Oziq-ovqat mahsulotlari va shaxsiy gigiyena tovarlari uchun har oyda qo'shimcha pul to'lovlari o'rniga yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun har oyda minimal iste'mol xarajatlari miqdorida moddiy yordam to'lab boshlandi.

Ijtimoiy xodim assistentlarining faoliyati har oyda bir marotaba ular xizmat ko'rsatayotgan yolg'iz keksalar, mahalladagi ijtimoiy xodimlar va maxsus dastur tomonidan baholanadi va shu asosda rag'batlantiriladi. Har olti oyda bir marotaba ijtimoiy xizmatlar sifati hamda individual ijtimoiy xizmatlar rejasi natijalari "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi xodimi, ijtimoiy xodim, tuman tibbiyot birlashmasining maxsus monitoring guruhi vakili hamda fuqarolar yig'ini raisi tomonidan monitoringdan o'tkaziladi. Bunda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning oddiy va murakkab harakatlarni amalga oshirish imkoniyati hisobga olinadi. Individual ijtimoiy xizmatlar rejasida belgilangan xizmatlarning mas'ul xodim tomonidan ko'rsatilgan muddati, natijasi, sifati, samaradorligi, bexatarligi baholanadi. Monitoring ma'lumotlari "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimiga kiritib boriladi.

Keyingi yillarda "Nuroniy" jamg'armasining moliyaviy imkoniyatlari yanada kengaydi, o'zgalar parvarishiga muhtoj 16 mingdan ziyod keksalarga yordam berildi, ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko'lami oshdi.

Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun "Saxovat" internat uylari hamda Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazi sifatida qayta nomlanib, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ijtimoiy-mehnat reabilitatsiya xonalari tashkil etildi. Istiqomat qiluvchi har 100 kishiga bir nafardan ijtimoiy xodim, reabilitolog va mehnat yo'riqchisi shtat birliklari joriy etildi. Shu bilan birga, markazda istiqomat qiluvchilar mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasiga ko'ra 2030-yilda Davlat budjetining ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan xarajatlari YaIMga nisbatan 1,5 foizga yetkaziladi.

#### Duo bilan ko'kargan el

Azaldan bolasini ardoqlab, ulug'ini e'zozlab kelgan xalqmiz. Har bir ishni oqsoqollar bilan bamaslahat qilamiz. Yangi tug'ilgan go'dakning qulog'iga azon aytishdan tortib soch kesishgacha, to'y-ma'rakalardan tortib dala-dehqonchilik ishlarini boshlashgacha, bari-barini ularsiz tasavvur eta olmaymiz. Davramizning to'ri, qalbimizning qo'ri, xonadonlarimiz farishtasi ular.

Davlatimiz rahbarining shu yurtning fidoyi bir farzandi sifatida keksalarning hech narsaga zoriqmay yashashini, moddiy ta'minotini yaxshilash, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan va yolg'iz keksalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamlar ko'lamini kengaytirish borasidagi savob ishlari, sa'y-harakatlari ularning duosini olishga, rozi qilishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Tarixiy o'zgarishlar sharofati bilan davlat xalqning ko'nglini topishga, uning ishonchini qozonishga qo'l urdi, xalqqa yaqinlashdi. Bugun Prezident virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari faoliyati dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Aholining munosib hayot tarzi uchun zarur bo'lgan daromad darajasini aniqlash, "iste'mol savatchasi" tushunchasini amalda qo'llash mexanizmini yaratish yo'lida ish olib borilmoqda.

Bu islohotlarga bevosita guvoh bo'layotgan yurt kelajagi – farzandlarimiz ulg'ayib, ana shu an'analarni davom ettiradi, bunday ezgu ishlar hayot bor ekan, yurtimizda bardavom bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, qadri baland, qadriyatlari jahon hamjamiyatida e'zoz topayotgan millatimizning yanada gullab-yashnashini kafolatlaydi.

**Nurulloh OSTONOV**
**("Xalq so'zi").**



# O'ZBEKISTONNING 7 TA OLIY TA'LIM MUASSASASI DUNYO MIQYOSIDA "TOP – 1000"TALIKDAN JOY OLDI

*Shu yil 10 – 13-iyun kunlari Tailandning Bangkok shahrida "Times Higher Education" xalqaro reyting tashkiloti tomonidan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan "Global barqaror rivojlanish kongressi" o'tkazildi.*

### E'tirof

Mazkur anjumanda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda mamlakatimizning yetakchi oliy ta'lim muassasalari mas'ullaridan iborat O'zbekiston delegatsiyasi qatnashdi. Tadbir doirasida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga bag'ishlangan maxsus pavilyon tashkil etildi.

Kongressda "Times Higher Education" xalqaro reyting tashkiloti tomonidan "Impact Rankings – 2024" natijalari e'lon qilindi.

E'tiborlisi, mazkur ro'yxatda O'zbekistonning 53 ta oliy ta'lim muassasasi qayd etilgan. Ulardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti (301 – 400-o'rin), Toshkent davlat yuridik universiteti (401 – 600-o'rin), O'zbekiston Milliy universiteti (601 – 800-o'rin), "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy-tadqiqot universiteti (601 – 800-o'rin), Samarqand davlat universiteti (801 – 1000-o'rin), Toshkent davlat texnika universiteti (801 – 1000-o'rin) va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (801 – 1000-o'rin) "TOP – 1000"talikdan joy oldi. Shuningdek, reytingda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti gender tenglik ko'rsatkichi bo'yicha dunyoda 10-o'rinni egalladi.

O'zbekiston delegatsiyasi tashrif davomida, shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga qaratilgan muhokamalar, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytingdagi o'rnini mustahkamlash hamda nufuzli xorijiy universitetlar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi.

**"Dunyo" AA.**
Bangkok

# JSST ekspertlari ishtirokida tibbiy ko'rik o'tkazildi

*Sirdaryo viloyatida ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar vrach-oftalmologlari uchun "Tizimda NCD profilaktikasi va nazoratdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashda birlamchi yordam" mavzuida uch kunlik seminar tashkil etildi.*



Unda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti maslahatchisi, Buyuk Britaniyadagi Liverpul universitetining klinik oftalmologiya sohasi bo'yicha professorlari ishtirok etdi. Shuningdek, sirdaryolik vrach-oftalmologlarning ham amaliy, ham nazariy bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida diabetik retinopatiya xastaligiga chalingan va davolanishga muhtoj bemorlar uchun tibbiy ko'rik tashkil etildi.

**"Xalq so'zi".**

REKLAMA

# TAMAKI MAHSULOTLARINI NOQONUNIY SOTUVCHILAR VA IMPORT QILUVCHILARGA QANDAY CHORALAR QO'LLANADI?

*Prezidentimizning yaqinda qabul qilingan "Alkogol va tamaki mahsulotlari bozorini tartibga solish hamda ularning noqonuniy aylanmasining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish to'g'risida"gi Farmoni noqonuniy tamaki mahsuloti ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilarni "tozalash"da muhim ahamiyat kasb etadi.*

Mazkur hujjatda qator mas'ul organlar tomonidan tadbirkorlar faoliyati ustidan qat'iy nazorat belgilanishi reglamentlangan. Farmonda ko'rsatilgan choralar va yangiliklar tamaki bozorini maksimal ravishda qonuniylashtirish, biznes hamda aholi huquqlarini himoya qilish va alkogol hamda tamaki mahsulotini ishlab chiqarish va sotish sohasida samarali, zamonaviy nazorat tizimini joriy etishga qaratilgan.

Avvalo, O'zbekistonda tashkil qilinadigan Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti huzuridagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi ushbu maqsadlarga xizmat qiladi. Inspeksiya vazifalarining ko'lami juda keng, bu – alkogol va tamaki tovarlarini ishlab chiqaruvchilar faoliyatini litsenziyalash, ushbu mahsulotlar savdosiga ruxsat beruvchi taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat hamda mahsulot ishlab chiqarilishi va aylanmasi monitoringi bo'yicha zamonaviy axborot tizimlarini joriy qilish va rivojlantirishdir. Shuningdek, inspeksiya aksiz markalarining yangi namunalarini ishlab chiqishda qatnashadi va tadbirkorlar bilan tushuntirish ishlarini o'tkazadi.

Noqonuniy tamaki mahsulotlari O'zbekistonga, asosan, chetdan – Tojikiston, Afg'oniston, Qirg'iziston, Qozog'istondan kelishi tufayli, Farmonda O'zbekiston hududiga bu tovarlar noqonuniy kirib kelishiga qarshi kurashish va tranzit nazoratiga jiddiy urg'u berilgan. Chunonchi, 2024-yil 1-sentabrdan respublika bo'ylab tamaki mahsulotlarining tranzitiga yangi talablar qo'yiladi. Kelib chiqish mamlakati, tovarlar yetkazilishiga oid shartnoma va qabul qilib olayotgan davlat aksiz markasi tushirilgan tamaki mahsulotini respublika hududi orqali tranzit olib o'tishga ruxsatnoma taqdim etilishi majburiy tus oladi.

Yuk tashuvchilar zimmasiga O'zbekiston bojxona organlari depozit hisobiga bojxona to'lovlarini kiritish majburiyati yuklanadi, tamaki va alkogol mahsulotlarini tashuvchi transport vositalari esa faqat inspeksiya – ko'zdan kechirish majmualari bilan jihozlangan chegara-bojxona postlari orqali o'tadi.

Prezidentning yangi Farmonidagi o'ta muhim band tovarlarning raqamli markirovkalar tizimini rivojlantirish bo'ldi – mahsulotlar u bilan majburiy tarzda ta'minlanishi lozim. Raqamli markirovkalash tizimini aksiz markalar tizimi bilan integratsiyalash vazifasi qo'yildi, bu Soliq qo'mitasi, Iqtisodiy va moliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va "Davlat belgisi" DUKning birgalikdagi faoliyatini yanada uyg'un, jips va shaffoflashtiradi hamda tamaki bozorini yanada jiddiy, yuqoriroq darajada nazorat qilish imkonini beradi.

**"THE BEE'S KNEES" MCHJ.**

**Mamlakatimizda uyushtirilgan Ozarbayjon madaniyati kunlari doirasida O'zbekiston Tasviriy san'at galereyasida "Ozarbayjon madaniyati" nomli ko'rgazma tashkil etildi.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir T. Eshboyev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 23.19 Topshirildi — 01.20 1 2 3 4 5 6